

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil).– 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Abdulbositova Muborak

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR 9-11

Anvarbekova Ruxsora

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDA PYTHON KUTUBXONALARINING
IMKONIYATLARI 12-14

KIMYO FANLARI

Kosimova Zuxra

OKSIDLANISH STRESSI VA UNING TROMBOSITLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI 15-18

Xoshimov Nozimjon, Kosimova Zuxra

ORGANIZMDAGI OKSIDLANISH STRESS HOLATIDA POLIFENOLLARNING ROLI 19-22

BIOLOGIYA FANLARI

Shertoyeva Risliqoy, Mavlanova Sadbarxon

O'ZBEKISTONNING SHARQIY MINTAQASIDA (NAMANGAN) YASHOVCHI 7–16 YOSHLI
BOLALAR VA O'SMIRLARDA KO'RISH CHAQRILGAN POTENSIALLARINING YOSHGA XOS
NORMATIV KO'RSATKICHLARI 23-25

TEXNIKA FANLARI

Qurbonov Mahmudjon, Umarov Abdusalam, Kuchkarov Khoshimjon, Khursanova Odina

STRUCTURAL FEATURES OF POLYAMIDE 6 WITH INCLUSIONS OF IRON OXIDE
NANOPARTICLES 26-38

Valixonov Ilyosbek

KOMPYUTERLI KO'RISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA TILINI MATNGA
O'GIRISH TIZIMLARINI TADQIQ ETISH 39-42

Qurbonov Mahmudjon, Kuchkarov Khoshimjon, Umarov Abdusalam

WITH STRUCTURE FORMATION AND THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE
COMPOSITION BASED ON POLYAMIDE WITH IRON OXIDE NANOPARTICLES 43-53

TARIX FANLARI

Nurullayeva Nabira

ISLOHATLAR, YARATILGAN IMKONIYATLAR – XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT
ESHIGI 54-56

Yuldashev Ulugbek

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHI TARIXI 57-60

To'ychiyeva Dilnoza, Ergasheva Go'zal

ZOMIN TUMANIDAGI TURIZM TARMOQLARINING RIVOJI XUSUSIDA 61-64

Мирзамидинова Шахноза

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРОБЛЕМАМИ ЯЗЫКА И
ОРФОГРАФИИ, В ПУБЛИЦИСТИКЕ АШУРАЛИ ЗОХИРИ 65-67

Raxmatov Xayrulla

BUXORO VOHASI MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLARI VA AHOLISI (XIX ASRNING SO'NGGI
CHORAGI – XX ASR BOSHLARIDA) 68-71

IQTISODIYOT FANLAR

Yusupov Nurillo

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 72-76

Mehmonova Shodiyonaxon

SHHT DOIRASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTIGA TA'SIRI 77-80

Ibadullaeva Shokhida

EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN APPLYING MARKETING STRATEGIES IN
EXPORTING ENTERPRISES 81-87

Yusupov Nurillo

KORXONALARNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH
USULLARI 88-92

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA SHAXSIY VA JAMOAVIY ERKINLIKNI MUVOZANATLASH
STRATEGIYALARI 93-96

Nabiyev Sherzodjon

DIGITAL DUNYODA YOSHLAR SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI
MUAMMOLAR 97-102

Saydaliyev Ilyosbek

MURAKKAB MUHITDAN KELGAN YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY RO'LI 103-106

Meliboev Azizjon

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA
XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASH 107-111

FILOLOGIYA FANLARI

Aminov Farrux

INGLIZ VA O'ZBEK OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA AXBOROT UZATISHNING
MULTIMODAL STRATEGIYALARI VA KOGNITIV MEKANIZMLARI 112-119

Jo'rayeva Madinaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR: O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI VA SUN'IY INTELLEKT SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR
MISOLIDA 120-124

Isakova Barchinoy

JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" HAMDA O'TKIR HOSHI MOVNING "NUR BORKI, SOYA
BOR" ROMANLARIDAGI POETIK VOSITALAR TAHLILI 125-128

Азизова Насиба

ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ А. С. ПУШКИНА, Н. В. ГОГОЛЯ И Л. Н.
ТОЛСТОГО АЛИШЕРА НАВОИ, ЗАХИРИДДИНА БАБУРА) 129-134

Toshboyeva Odinaxon

INGLIZ VA O'ZBEK INTERNET GAZETA SARLAVHALARIDA LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK
VOSITALAR ASOSIDA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI 135-138

<i>Umirzakova Dilnoza</i> ANIMATSION FILMLAR TARJIMASIDA LINGVOPRAGMATIK OMILLAR: QIYOSIY TADQIQOT	139-144
<i>Jabborova Aziza</i> SIYOSIY KOMMUNIKATSIYADA EVFEMIZMLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI	145-149
<i>Boykhanov Shukhratjon</i> UNDERSTANDING ENGLISH PROVERBS: LEXICAL, STYLISTIC, PSYCHOLOGICAL, AND PRAGMATIC DIFFICULTIES	150-155
<i>Narzulloyeva Maftuna</i> A COMPARATIVE ANALYSIS OF OFFICIAL LETTERS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	156-158
<i>Abdullayeva Dildora</i> QUTADG'U BILIG FRAZELOGIZMLARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TABIATI VA LISONIY TADQIQI	159-162
<i>Umrzaqov Islomjon</i> "JANUB RENESSANSI" DAVRI ASARLARIDA BADIY MAKON VA ZAMON POETIKASI	163-165
<i>Fayzullayeva Nozima</i> YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR	166-168
<i>Ergashev Nodirbek</i> SOCIAL INJUSTICE AND MORAL VALUES IN "OLIVER TWIST" BY CHARLES DICKENS	169-171
<i>Ubaydullaeva Dilfuza</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI (IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISHDA)	172-178
GEOGRAFIYA FANLARI	
<i>Umarov Javohir</i> FARG'ONA VILOYATI YER RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	179-185
YURIDIK FANLAR	
<i>Hakimboyeva Dildora</i> ELEKTRON HUKUMAT VA MA'MURIY HUQUQ MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI	186-188
<i>Самигжоновна Зилола</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ЗАЩИТУ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СЕТИ ИНТЕРНЕТ	189-195
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Xomidjonov Abrorjon</i> OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIMDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISH TAJRIBASI	196-202

<i>Sodiqova Gulnora</i> KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ISH BERUVCHILAR BILAN SAMARALI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARI	203-208
<i>Soliyeva Gavharoy</i> "HISOBLASH USULLARI" FANI BO'YICHA O'QUV KONTENTI	209-212
<i>Isaqov Abduvohid</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA METODIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	213-217
<i>Юсупова Наргиза, Юсупов Дильшод</i> ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ЮНЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВ РАЗВИТИЯ	218-221
<i>Ganiyev Elyorbek</i> TALABALARDA HUQUQIY TAFAKKUR VA TAHLILY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI	222-226
<i>Xabibullayev Alimardon</i> TALABALAR MOBILIGI VA QO'SHMA TA'LIM ASOSIDA INNOVATSION VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- INSTITUTSIONAL ASOSLARI	227-233
<i>Nigmatova Nozimaxon</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING XORIJIY AMALIYOTI VA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	234-237
<i>Юсупова Наргиза</i> АНАЛИЗ БИОМЕХАНИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ АТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ (WT)	238-241
<i>Abdullayeva Asila</i> O'ZBEKISTONNING SO'NGGI TARIXI VA FALSAFA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK UYG'UNLIK	242-247
<i>Ergasheva Nigora</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING METODIK VAZIFALARI	248-251
<i>Alimova Mashxuraxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHDA KONSTRUKSIYALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	252-255
<i>G'ofurova Barnoxon</i> TALABALARINING KONSEPTUAL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING METODIK SHART-SHAROITLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	256-260
<i>Axmedov Yodgorbek</i> ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARI O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATIDA TINKERCAD PLATFORMASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	261-263

<i>Qozaqova Munajat</i> MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHDA TALABALAR LOYIHALASH KO'NIKMASINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	264-267
<i>Парниева Айгуль</i> АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СОВРЕМЕННОГО СТУДЕНТА	268-271
<i>Nosirova Shoiraxon</i> INGLIZ TILIDA KASBIY MULOQOT XULQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	272-278
<i>Azizova Mohiniso, G'ulomova Sevara</i> MAKTAB DARSLARIDA RA'NODOSHLILAR OILASINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	279-281
<i>Jalilova Xolidaxon</i> METHODOLOGY FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF TEACHING ENGLISH USING WEBQUEST TECHNOLOGY	282-284
<i>Abduvaxobov Shohruhbek</i> MASOFADAN TA'LIM JARAYONIDA UCHRAYDIGAN AMALIY MASALALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA METODIK YONDASHUVLAR	285-287
<i>Аюпов Тимур</i> СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВУЗАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	288-290
<i>Tillayeva Nilufar</i> DIALOGIC PEDAGOGY IN ESL WRITING: THE ROLE OF SOCRATIC SEMINARS	291-294
<i>Sobirova Feruza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA DARSNI REJALASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	295-299
<i>Karimova Sadoqat</i> CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN IN A MONTESSORI EDUCATIONAL ENVIRONMENT	300-302
<i>Солохиддинова Фазилатхон</i> МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ «ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ»	303-306
<i>Sayidova Nilufar</i> ZAMONAVIY MUZEY EKSPOZITSİYALARIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING ILMIY - AMALIY AHAMIYATI	307-310
<i>Ne'matova Mahfuzaxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING NUTQ FAOLIYATINI FAOL RIVOJLANTIRISHDA FE'L SO'Z TURKUMINING TUTGAN O'RNI	311-313

TIBBIYOT FANLARI

Sobirova Mavludaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR314-316

Ахмаджонова Хуршидабону, Рустамова Шахиста

НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИЗУЧЕНИЮ НАСЛЕДСТВЕННАЯ

ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТЬ ВИРУСАМИ ГЕПАТИТА С (НСV) И В (HBV) НА

МОЛЕКУЛЯРНОМ УРОВНЕ317-322

Xoshimov Muslimbek, Karimjonov Jaloliddin, Inomov Kamoliddin, Izatullayeva Mohlaroyim

O'ZBEKISTONDA NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA

NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA ASTROSITLARDAGI REAKTIV

O'ZGARISHLAR323-326

Мамарова Шодила, Инатуллаева Рано, Сотиболдиева Умида, Кодиржанов Жавохир

ВИТАМИН D: МЕТАБОЛИЗМ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ, ДЕФИЦИТ И

ПРОФИЛАКТИКА327-336

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY VA IJTIMOY

KONTEKSTNING ROLI337-342

KORXONALARNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI

Yusupov Nurillo

Namangan davlat universiteti

"Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası stajor o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarning boshqaruv tizimi samaradorligini baholashda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va metodlar tahlil qilinadi. Korxonaning strategik maqsadlari, resurslardan foydalanish darajasi, boshqaruv jarayonlarining moslashuvchanligi hamda qaror qabul qilish jarayonlarining sifatini o'lchashga qaratilgan baholash mezonlari yoritiladi. Shuningdek, Balanced Scorecard (Muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi), KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari), benchmarking, iqtisodiy-moliyaviy tahlil, funksional baholash va kompleks integral baholash kabi usullar mazmunan ochib beriladi. Tadqiqotda ushbu usullarning afzalliklari, kamchiliklari hamda korxonalar amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi. Maqola boshqaruv samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda baholash tizimlarining tutgan o'rni va ahamiyatini ilmiy asosda yoritadi.

Kalit so'zlar: boshqaruv tizimi, samaradorlik, baholash usullari, Balanced Scorecard, KPI, benchmarking, iqtisodiy tahlil, moliyaviy ko'rsatkichlar, strategik boshqaruv, korxona faoliyati, monitoring, boshqaruv qarorlari.

METHODS OF ASSESSING THE EFFICIENCY OF THE MANAGEMENT SYSTEM OF ENTERPRISES

Yusupov Nurillo

Namangan State University

Trainee teacher of the Department of "Green Economy and Sustainable Business"

Annotation. This article analyzes modern approaches and methods used to assess the efficiency of enterprise management systems. It highlights evaluation criteria aimed at measuring the enterprise's strategic goals, the level of resource utilization, the flexibility of management processes, and the quality of decision-making. Methods such as the Balanced Scorecard, Key Performance Indicators (KPI), benchmarking, economic and financial analysis, functional assessment, and comprehensive integral evaluation are discussed in detail. The study also presents the advantages, disadvantages, and practical applicability of these methods for enterprises. The article scientifically elucidates the role and significance of evaluation systems in enhancing management efficiency, strengthening competitiveness, and ensuring sustainable development of enterprises.

Key words: management system, efficiency, evaluation methods, Balanced Scorecard, KPI, benchmarking, economic analysis, financial indicators, strategic management, enterprise activity, monitoring, management decisions.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i2/n17>

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uning tarmoq va sohalarining rivojlanishiga bog'liq bo'lib, ularning samaradorligi menejment faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Menejment nazariy jihatdan nisbatan yangi bo'lgani bilan, amaliy jihatdan uning ildizlari qadim-qadimlarga ketadi. Misr ehromlari, Samarqand va Buxoro minoralari, tarixiy obidalar, Temur bog'lari, turli davrlarda bo'lib o'tgan urushlar barchasi boshqaruvning natijasidir. Boshqaruv orqali bu ishlar amalga oshiriladi. Ko'pchilik birgalikda faoliyat ko'rsatar ekan, ularning faoliyati boshqaruvga muhtojdir. Ulardagi odamlarning, bo'limlarning harakatlarini bir-biriga muvofiqlashtirish

boshqaruv jarayoni natijasida amalga oshadi. Boshqaruvsiz hech qanday faoliyat amalga oshmaydi. [1; B.77.].

Mamlakatimizning sanoat korxonalarining faoliyatini takomillashtirish va ular oladigan foyda darajasini oshirish hamda bu korxonalarni bozor sharoitidagi ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini saqlab qolish va kengaytirish uchun ulardagi boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish talab etiladi. Boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish orqali ko'zlangan maqsadlarga yetishish ta'minlanadi. [2; B.87.].

Avvalambor samara va samaradorlik tushunchalarini iqtisodiy jihatdan talqin qilish maqsadga muvofiqdir. O'zbek tilining izohli lug'atida bu iboralar quyidagicha talqin etilgan. [3; B.89.].

"Samara" - bu natija, oqibat, meva. Masalan, ijodiy mehnat samarasi, boshqaruv mehnati samarasi va shu kabilar. "Samaradorlik" - bu kutilganicha yoki undan ham ortiq samara. Samarali, sermahsul. Masalan, samarali mehnat demakdir. [4; B.66.].

Iqtisodiyotda "samara" bu yaratilgan yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy daromad, yalpi sof mahsulot, yalpi sof daromadlarda o'z ifodasini topadi. Ammo, birgina samaraning o'zi korxona faoliyatini to'liq ifodalay olmaydi. Eng muhimi shu samaraga qanday xarajatlar orqali erishilganini aniqlashdir. Zero, bir xil xarajat qilib turli samara olinishi mumkin bo'lganidek, bir xil samaraga turli xil mehnat sarfi tufayli erishish ham mumkin. [5; B.33.].


Ishlab chiqarishning maqsadi ham iqtisodiy resurslar sarfini kamaytirish, ya'ni o'z mehnat, moddiy va pul mablag'lari sarflab ko'proq samaraga erishishdir. Bu degan so'z erishilgan samarani sarflangan xarajatga bo'lish kerak. Bunday taqqoslash samaradorlik nisbiy ko'rsatkichini beradi. [6; B.31.].

Samara va samaradorlik tushunchalariga nisbatan bunday yondashish boshqarish obyektiga, ya'ni yaxlit ishlab chiqarishga xosdir. Boshqarish samaradorligini aniqlashda bu tariqa yondashish, albatta noto'g'ri bo'lardi. Chunki bu yerda asosiy urg'u boshqariluvchi obyekt (korxona) samaradorligiga emas, balki ko'proq boshqaruv mehnati samaradorligiga, xususan, boshqaruv funksiyalarining samaradorligiga beriladi. [7; B.45.].

Boshqaruv samaradorligi - bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda boshqarishning ro'lini oshirishdan iboratdir. Boshqaruv samaradorligini aniqlashda korxonadagi boshqaruv faoliyatini amalga oshirishdagi xarajatlarni aniqlash muhim bosqich bo'lishi kerak. Boshqaruv xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- axborot olish va uni qayta ishlash bilan bogliq xarajatlar;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar;
- ilmiy ishlanmalar, loyihalash, tajriba va seriyali ishlab chiqarishni o'z ichiga oluvchi bosqichlar xarajati;
- mahsulotlardan foydalanish xarajatlari.

Boshqacha qilib aytganda, bunga boshqaruvning barcha funksiyalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar kiradi.



Boshqaruv faoliyatining samaradorligi

Menejment tizimining iqtisodiy samaradorligini baholash muammosini yechish asoslarining muhim uslublaridan biri, eng avval ishlab-chiqarishni samaradorligi tushunchasini bozor munosabatlari sharoitida to'g'ri tushunishdan iborat.

Menejment tizimining iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqarish iqtisodida hukm suruvchi, farqlanuvchi xususiyat va har xil jarayonlarning ustunligi bilan tavsiflanadi. Ushbu tizimlarni taraqqiy topishi va takomillashuvini maqsadga muvofiqligi, uning alohida elementlaridan boshlab ishlab chiqarishining eng quyi bo'yinsunish darajasidan to uning eng yuqori saviyasigacha ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Menejment uchun taalluqli qilib aytganda, bu shunday ma'noni bildiradiki: ko'rib chiqilayotgan tizimni iqtisodiy samaradorligi pirovard natijasi shundan iboratki, u to'g'ridan-to'g'ri va bevosita ishlab chiqarilayotgan mahsulotning hamma turi bilan kerakli son va sifatda zaruriy jihatdan ta'minlash va xalq xo'jaligini taraqqiy toptirish va ilmiy-texnika taraqqiyotini, xalqni o'sib borayotgan moddiy va ma'naviy talabi qondirilishini amalga oshirishdan iboratdir.

Boshqaruv faoliyatining samarasi – bu boshqaruv faoliyati qo'llanilayotgan tizimlarda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasi va ular asosida zaruriy mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlarni ko'rsatishdir.

Ko'rsatkich bu biror narsaning rivoji, o'zgarishini bildiruvchi belgi yoki narsa. Ko'rsatkichlar mutlaq va nisbiy ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Mutlaq ko'rsatkichlar aniq sharoitda sodir bo'lgan voqea va hodisaning miqdorini, hajmini, qiymatini ifodalaydi. Nisbiy ko'rsatkichlar esa u yoki bu mezonning intensivlik darajasini tavsiflaydi.

Boshqarish obyekti faoliyatini tavsiflash uchun quyidagi samaradorlik mezonlari qo'llaniladi:

1. Umumlashtiruvchi mezonlar: resurslar va xarajatlar samaradorligi;

2. Xususiy mezonlar:

-mahsulot ishlab chiqarishga eng kam jonli mehnat sarflash;

-eng kam moddiy va moliyaviy resurslarni sarflash;

3. Sifat mezonlari:

-yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish;

-shartnomalarni muddatida bajarish;

-xodimlarning barqarorligi;

-raqobatbardosh texnologiyaga erishish.

Binobarin, boshqarish jarayoni samaradorligini oshirish berilgan mezonlar yoki mezonlar tizimiga muvofiq ravishda boshqaruvchi organ tomonidan muayyan natijaga erishish maqsadida aniq obyektning eng qulay, eng samarali boshqarish usullarini topishdan iboratdir.

Boshqarish subyekti faoliyatini tavsiflash uchun quyidagi samaradorlik mezonlari qo'llaniladi:

1. Boshqarish tizimidagi moliyaviy xarajatlarni tejash.

Boshqarish apparati xarajatlarning kamayishi boshqariluvchi tizim samaradorligining iqtisodiy mezoni bo'lishi mumkin. Bu o'rinda boshqaruv apparati shtatlarini oqilona qisqartirish, xizmat safarlarini kamaytirish kabilar tejamkorlikning muhim omillari ekanligini ta'kidlash zarur.

2. Boshqarish tizimida jonli va buyumlashgan mehnatni tejash.

Bu mezon kuchlarni eng ko'p darajada tejash va mehnatdan eng unumli foydalanishni ko'zda tutadi. U sermehnat ishlar va operatsiyalarni qisqartirishda, moddiy va mehnat vositalarini tejashda ifodalanadi. Mehnatni tejashga boshqaruv tarkibi va texnologiyasi jarayonlarigi ratsionallashtirish, boshqaruv apparatidagi mehnatni kompyuterlashtirish, axborotlarni olish tizimini takomillashtirish yo'li bilan erishiladi.

3. Ayrim operatsiyalarni bajarishga va butun boshqaruv jarayoniga sarf bo'ladigan vaqtni tejash. [8; B.49.].

Bu mezonda bosh omil vaqtdir. Axborot to'plash va uni qayta ishlashga, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni amalga oshirishga sarf bo'ladigan vaqtni har tomonlama qisqartirish; biznes rejani tuzishga ketadigan vaqtni qisqartirish, tezkor topshiriqlarni yetkazish muddatini tezlashtirish, faoliyat natijalarini tezkorlik ila baholash bilan iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Qayd qilingan mezonlarning har biri mazkur davr uchun iqqisodiy siyosatda belgilangan maqsadlardan, korxona yoki tarmoqning aniq ish sharoitlari e'tiborga olingani holda boshqaruv faoliyatiga baho berish uchun tanlab olinishi kerak. Boshqaruv tizimining turli vazifalarini maqsadga muvofiqlashtirish uchun ham mezon tanlanadi.

Boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish uchun avvalambor, boshqaruv faoliyati samaradorligining ko'rsatkichlarini bilib olish zarur. Boshqarish samaradorligi o'z tabiati bilan murakkab jarayon. Uni faqat bitta yoki ikkita ko'rsatkich bilan ifodalab bo'lmaydi. Buning uchun ko'rsatkichlar tizimi zarur. Bu tizimni ikkita yirik guruhga bo'lish mumkin:

1. Boshqarish tizimi faoliyatini tavsiflovchi miqdoriy ko'rsatkichlar:

-boshqaruvdagi jonli mehnatning tejalishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;

-boshqaruv uchun sarflangan moliyaviy resurslarning tejalishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;

-boshqarish uchun sarflanadigan vaqtni tejalishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

2. Boshqaruvning ijtimoiy samaradorligini tavsiflovchi sifat ko'rsatkichlari:

-boshqarishning ilmiy-texnik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar;

-boshqaruv apparati xodimlarintg malakasi darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;

-qabul qilingan qarorlar samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;

-boshqaruv jarayonidagi axborotlarning ishonchliligi va to'liqligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;

-boshqarish madaniyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;

-kommunikatsiyaning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;

-boshqaruv apparatidagi mehnat sharoitini tavsiflovchi ko'rsatkichlardir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xonkeldiyeva G.Sh. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korporatsiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. Iqt.fanlari doktori ilm.daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref.-Toshkent, 2018, -71 b.
2. V. A. Plotnikov, Proceedings of St. Petersburg State University of Economics, 4 (112), 16-24 (2018).
3. R.S.Muratov, I.A.DJalalova, S.Sh.Oripov. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. "Fan va texnologiya", 2014, 424 bet. Abduraupov R.R. O'zbekistonda xorijiy investisiyali korxonalar iqtisodiy salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqt.fanlari doktori ilm.daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref. Toshkent, 2017 y.-70 b.

4. Ulashev I.O., Atamuradov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. Toshkent-2013, 24-b.
5. "Iqtisodiyot va talim" jurnali. -T., 2009-2012 yillar sonlari.
6. Xodiev B.Yu. va boshq. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: o'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2010. - 267 b. Улашев И.О. Разработка управленческих решений: Учебное пособие. - Т.: Moliya-iqtisod, 2007.
7. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. -T.: Sharq, 2006.
8. Каплан Р.С., Нортон Д.П. Организация, ориентированная на стратегию. Как в новойбизнес-среде преуспевают организации, применяющие сбалансированную систему показателей/пер.сангл.М.: ЗАО Олимп-Бизнес. 2004-416 с.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil). – 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.